



PROFESSIONAL TA'LIMDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasi v.b.dotsenti, PhD

Yaqubova Lola

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta'limda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda mehnat bozori talablarining o'zgaruvchanligi va ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik jihatdan yangilanib borishi professional ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda, ya'ni tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilim va ko'nikmalari real ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, maqolada professional ta'lim muassasalari faoliyatini sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan uyg'unlashtirish masalalari dolzarb muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim jarayonini tashkil etishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ishlab chiqarish subyektlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda o'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi. Xususan, dual ta'lim tizimini joriy etish, ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish, o'quv jarayonini real ish muhitiga yaqinlashtirish hamda korxonalar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish muhim omillar sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali talabalar amaliy tajriba orttirishi, ularning kasbiy kompetensiyalari shakllanishi va mehnat bozoriga tez moslashuvi ta'minlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, dual ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar, mehnat bozori, kadrlar tayyorlash tizimi, ishlab chiqarish amaliyoti, ta'lim sifati, o'quv jarayoni.



Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring the integration of education and production in professional education. Today, the changing demands of the labor market and the technological modernization of production processes are setting new tasks for the vocational education system, namely, the need for the knowledge and skills of trained specialists to be in line with real production needs. In this context, the article considers the issues of integrating the activities of professional educational institutions with industrial and service sectors as an urgent problem. The article justifies the need to form practical skills along with theoretical knowledge, establish effective cooperation with production entities, and improve curricula based on modern technologies in organizing the educational process. also highlights how students gain practical experience through the integration of education and production, their professional competencies are formed, and their rapid adaptation to the labor market is ensured. nal programs with enterprises were analyzed as important factors. It also highlights how students gain practical experience through the integration of education and production, their professional competencies are formed, and their rapid adaptation to the labor market is ensured.*

Keywords: *Vocational education, education and production integration, dual education system, professional competencies, practical skills, labor market, personnel training system, work experience, education quality, learning process.*

Аннотация: *В статье анализируются теоретические и практические аспекты обеспечения интеграции образования и производства в профессиональном образовании. связи с этим в статье рассматриваются вопросы гармонизации деятельности профессиональных образовательных учреждений с отраслями промышленности и сферы услуг как актуальные проблемы. В статье обосновывается необходимость формирования практических навыков наряду с теоретическими знаниями при организации образовательного процесса, налаживания эффективного сотрудничества с субъектами производства, совершенствования учебных программ на основе современных технологий. емы. В статье обосновывается необходимость*



формирования практических навыков наряду с теоретическими знаниями при организации образовательного процесса, налаживания эффективного сотрудничества с субъектами производства, совершенствования учебных программ на основе современных технологий. В частности, важными факторами были проанализированы внедрение дуальной системы образования, расширение производственной практики, приближение учебного процесса к реальной рабочей среде, а также разработка совместных образовательных программ с предприятиями. Также освещается, что посредством интеграции образования и производства студенты получают практический опыт, формируются их профессиональные компетенции и обеспечивается их быстрая адаптация к рынку труда.

Ключевые слова: Профессиональное образование, интеграция образования и производства, дуальная система образования, профессиональные компетенции, практические навыки, рынок труда, система подготовки кадров, производственная практика, качество образования, образовательный процесс.

KIRISH

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishi mehnat bozori talablarini tubdan o'zgartirib bormoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada malakali, amaliy ko'nikmalarga ega, tez moslashuvchan va innovatsion fikrlay oladigan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu bois professional ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quv jarayonini real ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, ya'ni ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur integratsiya professional ta'lim samaradorligini oshirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda ularning mehnat bozoriga tez moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda professional ta'lim tizimini takomillashtirish, uni iqtisodiyot tarmoqlari bilan yaqinlashtirish bo'yicha keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'lim



tizimi va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi natijasida bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalari ish beruvchilar talablariga to'liq javob bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, yosh mutaxassislarning ishga joylashishida qiyinchiliklar tug'diradi, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va malakali kadrlar yetishmovchiligiga olib keladi. Shu sababli ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Professional ta'limda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi deganda o'quv jarayonini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, talabalarning real ish sharoitida tajriba orttirishini ta'minlash tushuniladi. Bunday yondashuv orqali ta'lim jarayoni yanada samarali tashkil etilib, o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham egallaydi. Natijada, bitiruvchilar ish faoliyatini boshlash jarayonida kamroq muammolarga duch keladi va ishlab chiqarish jarayonlariga tez moslashadi.

So'nggi yillarda dual ta'lim tizimi professional ta'limda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tizimda o'quvchilar o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida ishlab chiqarishda ham faoliyat olib boradi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarini ta'lim jarayonida faol ishtirok etib, o'quv dasturlarini shakllantirishda o'z ehtiyojlarini inobatga oladi. Bu esa tayyorlanayotgan mutaxassislarning mehnat bozori talablariga mos bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlarning o'rnini ham beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, virtual laboratoriyalar yaratish hamda masofaviy amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligini ham ta'minlaydi.



Professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Chunki malakali kadrlar har qanday iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bois, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va kadrlar tayyorlash jarayonini birgalikda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallab, u iqtisodiyotning real sektori uchun raqobatbardosh, yuqori malakali va amaliy ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda global iqtisodiyotda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda mehnat bozori talablarining tezkor yangilanishi professional ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan yanada yaqinlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitali nazariyasida Gary Becker tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga ko'ra, ta'lim tizimiga kiritilgan investitsiyalar bevosita iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Bu esa professional ta'limning sifatini oshirish va uni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini anglatadi. Shuningdek, Peter Drucker tomonidan ilgari surilgan bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasida zamonaviy iqtisodiyotda bilim va ko'nikmalarning ustuvor ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvlar professional ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlariga moslashuvchanlikni ta'minlash zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular orasida dual ta'lim tizimi alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Germaniya tajribasi asosida olib borilgan ilmiy



izlanishlarda dual ta'lim modeli o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan bevosita bog'lash orqali talabalarning amaliy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishi qayd etiladi. Ushbu tizimda nazariy bilimlar ta'lim muassasasida berilsa, amaliy ko'nikmalar ishlab chiqarish korxonalarida shakllantiriladi. Shu sababli, mazkur model professional ta'lim samaradorligini oshirishning eng muvaffaqiyatli usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Oliy va professional ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini o'rganishda A.Novikov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'limning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligi uning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Muallif ta'lim jarayonini real iqtisodiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish orqali bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish mumkinligini asoslab beradi. V.Slastenin esa pedagogik tizimni modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlab, ta'lim mazmunini ishlab chiqarish talablariga moslashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Mehnat bozori va professional ta'lim o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari L.Mitchell va R.Brown tomonidan ham keng o'rganilgan bo'lib, ular ta'lim tizimining ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash orqali kadrlar yetishmovchiligi muammosini hal etish mumkinligini qayd etadilar. Ularning fikricha, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish professional ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy olimlar tomonidan ham professional ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, B.Xodiev iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlab, ta'lim tizimini real sektor ehtiyojlariga moslashtirish muhimligini qayd etadi. Shuningdek, S.Saloxitdinov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda professional ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuv muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim



jarayoni faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, balki talabalarning amaliy faoliyatda zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu borada I.A.Zimnyaya tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyaviy model ta'lim tizimida keng qo'llanilib, u talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, N.Davies tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli platformalar va onlayn ta'lim vositalari orqali ishlab chiqarish jarayonlariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengayib borayotgani qayd etiladi. Bu esa professional ta'lim tizimini yanada moslashuvchan va samarali qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, professional ta'limda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u ta'lim tizimining sifat darajasi, mehnat bozori ehtiyojlari, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Shu bois, professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish orqali raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga tayangan holda ishlab chiqildi hamda ta'lim jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Avvalo, mavzu doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va milliy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinib, integratsiya jarayonining nazariy asoslari shakllantirildi. Shu orqali ta'lim va ishlab



chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning shakllari, mexanizmlari hamda ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv qo'llanilib, professional ta'lim tizimi o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqildi. Ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlar yagona tizim doirasida tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan integratsiya modellari va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlar o'rganilib, samarali yondashuvlar aniqlashga harakat qilindi. Analitik usullar asosida ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish darajasi, ishlab chiqarish bilan hamkorlikning holati va uning natijadorligi umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash zamonaviy ta'lim menejmentining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, texnologik yangilanishlar va mehnat bozori talablarining o'zgaruvchanligi professional ta'lim tizimidan yanada moslashuvchan, amaliyotga yo'naltirilgan va natijador yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani samarali tashkil etish orqali nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlash mumkin.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi professional ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashni anglatadi. Mazkur integratsiya jarayoni o'quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida shakllantirish, talabalarni real ish muhitiga jalb etish, korxonalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv natijasida talabalarda nafaqat kasbiy bilimlar, balki muammolarni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi muhim kompetensiyalar ham shakllanadi.

Professional ta'limda integratsiyani ta'minlashda ta'lim menejmentining roli beqiyosdir. Chunki mazkur jarayonni samarali boshqarish strategik rejalashtirish,



resurslarni to'g'ri taqsimlash, monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi axborot almashinuvini jadallashtirish, innovatsion o'qitish metodlarini keng qo'llash integratsiya samaradorligini oshiradi. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash usullari turli shakllarda namoyon bo'lib, ular professional ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval):

1-jadval

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash usullari¹

№	Integratsiya usuli	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
1	Dual ta'lim tizimi	O'qish va ishlab chiqarishni bir vaqtda olib borish	Talabalarda real ish tajribasi shakllanadi
2	Ishlab chiqarish amaliyoti	Korxonalarda amaliy mashg'ulotlar tashkil etish	Kasbiy ko'nikmalar mustahkamlanadi
3	O'quv dasturlarini moslashtirish	Ish beruvchilar talabiga mos o'quv rejalari	Bitiruvchilar mehnat bozoriga moslashadi
4	Davlat-xususiy sheriklik	Ta'lim va biznes hamkorligi	Resurslardan samarali foydalanish
5	Mentorlik tizimi	Mutaxassislar tomonidan talabalarni yo'naltirish	Individual rivojlanish ta'minlanadi
6	Amaliy loyihalar	Real ishlab chiqarish muammolarini yechish	Innovatsion fikrlash rivojlanadi
7	Korporativ ta'lim markazlari	Korxonalar huzurida o'quv markazlari	Kadrlar tayyorlash sifati oshadi

¹ Muallif ishlanmasi



8	Raqamli texnologiyalar	Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar	Zamonaviy ko'nikmalar shakllanadi
9	Seminar va treninglar	Mutaxassislar ishtirokida mashg'ulotlar	Amaliy bilimlar kengayadi
10	Bitiruvchilar monitoringi	Bitiruvchilar faoliyatini kuzatish	Ta'lim sifati baholanadi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Ushbu usullarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayoni ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Eng samarali usullardan biri sifatida dual ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nazariy bilimlar va amaliy tajribani uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa talabalarni real ish muhitiga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarish amaliyotlari va amaliy loyihalar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu usullar orqali talabalar nazariy bilimlarini real muammolarni hal etishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada ularning analitik fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. O'quv dasturlarini ish beruvchilar talablariga moslashtirish esa ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik va korporativ ta'lim markazlari integratsiya jarayonining institutsional asoslarini mustahkamlaydi. Bu orqali ta'lim muassasalari ishlab chiqarish korxonalarini bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi va kadrlar tayyorlash jarayoni yanada samarali tashkil etiladi. Mentorlik tizimi esa individual yondashuvni ta'minlab, talabalarni kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi integratsiya jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn platformalar orqali talabalar ishlab chiqarish jarayonlarini chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.



Bitiruvchilar monitoringi esa ta'lim tizimi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda olib borilayotgan ta'lim islohotlariga qaramay, amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoni va real ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini qiyinlashtiradi hamda korxonalar tomonidan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosini yuzaga keltiradi. Ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan ushbu muammolarni aniqlash va ularni tizimli ravishda hal etish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Integratsiya jarayonining samaradorligi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi hamkorlik darajasi, o'quv dasturlarining zamonaviyligi hamda boshqaruv mexanizmlarining takomillashganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish professional ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (2-jadval):

2-jadval

O'zbekistonda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasidagi muammolar va yechimlar²

№	Muammolar	Mazmuni	Yechimlar
1	O'quv dasturlarining eskirganligi	Zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos emas	O'quv dasturlarini muntazam yangilash va moslashtirish
2	Amaliy mashg'ulotlar yetishmasligi	Nazariy bilim ustunligi	Amaliyot va dual ta'lim tizimini kengaytirish
3	Korxonalar bilan hamkorlik sustligi	Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida uzilish mavjud	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish

² Muallif ishlanmasi



4	O'qituvchilar malakasining yetarli emasligi	Zamonaviy texnologiyalarni bilmaslik	Malaka oshirish va stajirovkalarni tashkil etish
5	Moddiy-texnik bazaning zaifligi	Zamonaviy jihozlar yetishmasligi	Investitsiyalar jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish
6	Bitiruvchilar monitoringi sustligi	Natijalar tahlili yetarli emas	Monitoring va baholash tizimini joriy etish
7	Raqamli texnologiyalar kam qo'llanishi	Innovatsion yondashuvlar yetishmasligi	Raqamli ta'lim platformalarini joriy etish
8	Ish beruvchilar ishtirokining pastligi	Ta'lim jarayonida faol qatnashmaydi	Ish beruvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish
9	Kasbiy yo'naltirishning sustligi	Talabalar noto'g'ri yo'nalish tanlaydi	Karyera markazlarini rivojlantirish
10	Boshqaruv tizimining yetarli emasligi	Integratsiya jarayoni samarali boshqarilmaydi	Ta'lim menejmentini takomillashtirish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash jarayonida mavjud muammolarni tizimli ravishda aks ettiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, asosiy muammolar o'quv jarayonining amaliyotdan uzilib qolganligi, korxonalar bilan hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda boshqaruv mexanizmlarining takomillashmaganligi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, o'quv dasturlarining zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos kelmasligi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarning yetarli emasligi talabalar bilimini real sharoitda qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Taklif etilgan yechimlar esa ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ular orasida dual ta'lim tizimini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va o'qituvchilar malakasini oshirish muhim o'rin tutadi. Raqamli



texnologiyalarni joriy etish va monitoring tizimini takomillashtirish esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, integratsiya jarayonini samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu professional ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash zamonaviy ta'lim menejmentining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu integratsiya jarayoni kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash orqali talabalar nafaqat bilimga, balki real ishlab chiqarish sharoitida ishlash tajribasiga ham ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi va ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada kuchaytirish, ya'ni uzoq muddatli strategik sheriklik mexanizmlarini joriy etish zarur. Ikkinchidan, o'quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda muntazam yangilab borish va ularga amaliy komponentlarni kengroq kiritish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, dual ta'lim tizimini keng joriy etish orqali talabalarning bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tash sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol tatbiq etish ham muhim vazifalardan biridir. O'qituvchilarning malakasini oshirish, ularni real sektor bilan yaqin hamkorlikka jalb etish ham integratsiya samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va innovatsion qilish mumkin.



Umuman olganda, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi uzluksiz rivojlanadigan jarayon bo'lib, u ta'lim tizimining sifatini oshirish va iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. (Monograph). The University of Chicago Press, 1993. 390 p.
2. Drucker P.F. Post-Capitalist Society. (Book). HarperBusiness, 1993. 232 p.
3. Новиков А.М. Профессиональное образование в России: перспективы развития. (Монография). Москва: Академия, 2005. 320 с.
4. Сластенин В.А. Педагогика профессионального образования. (Учебник). Москва: Академия, 2008. 384 с.
5. Mitchell L., Brown R. Education and Labour Market Integration // Journal of Vocational Education and Training. 2012. Vol. 64. №2. P. 145–160.
6. Xodiev B.Yu. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida kadrlar tayyorlash tizimi. (Darslik). T.: Iqtisodiyot, 2019. 280 bet.
7. Saloxitdinov S.F. Professional ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish yo'llari // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. 2022. №5. 45–50-betlar.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма образования // Высшее образование сегодня. 2003. №5. С. 34–42.
9. Davies N. Digital Education and Workforce Skills Development // International Journal of Educational Technology. 2021. Vol. 18. №3. P. 77–89.